

JAMOATCHILIK FIKRINING OILAVIY HAYOT VA YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

N.J.Raxmatova

Buxoro shahar kasb-maktabio'qituvchilari

K.Bahodirov

Ta'lim ustasi

G.T.G'aybullayeva

Mustaqilligimiz sharofati bilan yurtimizda milliy qadriyatlarimizni e'zozlash, oilani va nikohni mustahkamlash, oiladagi farzandlar ta'lim-tarbiyasiga jiddiy yondashish masalalariga katta ahamiyat berila boshlandi. O'zbekistonda ma'naviy, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada belgilangan rejalarni bajarish Vatanimizning kelajakda rivojlangan dunyoviy demokratik davlatlardan biriga aylantirishning muhim shartidir. Buyuk davlatimiz poydevorini sog'lom avlodlargina barpo eta oladi.

Sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning o'rne muhim va betakrordir. Inson salomatligi va ma'naviy kamolotni birinchi poydevori oilada qo'yiladi. Bu borada o'zbek xalqining oilada farzand tarbiyalashdagi tajribasi diqqatga sazovordir. Bu tajribada milliy tarbiya an'analari, inson ma'naviyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy, diniy qadriyatlar ham o'z ifodasini topgan. Mustaqillik sharoitida oilada farzand tarbiyalash borasidagi an'alarimiz davr ruhi va ehtiyojlari bilan bog'lanib yanada kattaroq ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli oilani mustahkamlash, uning ma'naviy-axloqiy tarbiya borasidagi ahamiyatini kuchaytirish masalasi davlat siyosatida tobora katta o'rin olmoqda. Birinchi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu masala bo'yicha quyidagi fikrni aytganlar: "Yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizni nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishi darkor"

Darhaqiqat, inson ma'naviyatining birinchi kurtaklari oilada shakllanadi. Oila mustahkam bo'lishi uning ahloqiy huquqiy asoslari barqarorligi komil insonni tarbiyalashning birinchi zaminidir.

Har bir ota-ona farzandini barkamol bo'lib voyaga yetishini istaydi. Farzand tarbiyasi qo'ni-qoshnilar ta'siri, mahallalardagi muhitga ham bog'liqligi sababli o'zbeklar barcha davrlarda jamoatchilik fikriga befarq qaramagan. "Hovli olma qo'shni ol", "Qo'shning tinch bo'lsa - sen ham tinch", degan maqollar ham ijtimoiy muhitning inson, jamiyat hayotidagi o'rnini, ahamiyatini yuksak darajada ifodalangan hikmatlaridir.

Har bir oilaning tinchligi-yonma-yon yashayotgan qo'shnining ham tinchligi. Shu sababli ham oilalar o'rtasidagi iliq, samimiy aloqalar mahallalardagi qo'ni-qo'shnichilik

munosabatlarning asosiy shaklini tashkil etadi. Qo'shnilar bir-birining oilaviy turmush sharoitlarini, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning ahvolini, farzandlar tarbiyasi borasidagi yutuq va kamchiliklarini boshqalardan ko'ra ko'proq bilganlar, turmushning quvonchli kunlarda, motam damlarida bir-biriga maslahatchi, ko'makdosh bo'lganlar. Har bir oilaning tinchligi barcha qo'ni qo'shnilarining, qolaversa, butun mahallaning tinchligidir.

Oilalarda bo'ladigan kelishmovchiliklar, nizoli holatlar, axloqsizliklarga baho berishni aqilli, obro'-e'tiborli, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan oqsoqollarga topshirish ma'quldir. Hayotda ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlar bunday ishlarni adolatli hal qiladilar. Biror oiladagi yomon vaziyatga nisbatan jamoatchilik fikrini bildirishdan maqsad axloq, odob, ba'zan chegarasidan chiqqan kishilarga nasihat qilish, ularni to'g'ri yo'lga solishdir. Bu ishdagi samarali yo'l fe'lu-atvori muhokama etilayotgan shaxsni o'z vijdoniga murojaat qilishga o'rgatishdir. Jamoatchilik fikri ota-onalar va bolalarning jamiyat, jamoatchilik oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradigan katta ijtimoiy, ma'naviy omilidir.

Bir bolaga yetti qo'ni-qo'shni ota-onadir, degan gap bor. Bu ham bizning milliy qadriyatimiz, mahallalarda qo'ni-qo'shnilar, ayniqsa keksalar yoshlarning yurish-turishiga befarq qaramaydilar, har qadamda ularni tarbiyalashga, to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladilar, halol mehnatga chorlaydilar. Mahalla, oila hamkorligi bo'lajak avlodning qanday bo'lishi, ota-ona va yaqin qo'shnilarining tanbehlari barchasi faqat yaxshi niyatda bo'lishini ko'rsatadi. Ota-ona va mahallaning katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilligi, kichiklarga g'amxurligi oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, oilaviy tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchungina sarflangan vaqt bilan o'lchangan, balki oilaning ijtimoiy bosqichi bilan, ota-onalarning mahalladagi bro'si va ularning ma'naviy-axloqiy darajasi bilan aniqlanadi. Bundan ota-onalarning katta kishilarning yoshlar tarbiyasi yuzasidan burch va mas'uliyatini chuqur his qilishlarini his qilishlari yetakchi mezomdir.

Shuni ta'kidlash joizki, oilani mustahkamlash, yoshlarni tarbiyalashga jamoatchilik fikrining kuchi va ta'siridan keng foydalanish hozirgi kunga ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu boradagi tajriba va an'analardan samarali foydalanish mustaqillik sharoitida amalga oshirilayotgan ma'naviy, tarbiyaviy ishlarni yaxshilashning muhim sharti hisoblanadi.